

# & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*



**OAK:** <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari  
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,  
132 sahifa, iyun, 2025-yil.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                   |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan .....                                                                                            | 12  |
| <b>Isakov Janabay Yakypbayevich</b>                                                                                                               |     |
| Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....                                                                    | 18  |
| <b>Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B</b>                                                                                                             |     |
| Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market .....                        | 23  |
| <b>Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova</b>                                        |     |
| O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari .....                                               | 29  |
| <b>D.E.Qarshiev</b>                                                                                                                               |     |
| Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston .....          | 35  |
| <b>Islomova Dilrabo Salomovna</b>                                                                                                                 |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli .....                                                | 40  |
| <b>Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich</b> |     |
| Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития .....                                        | 47  |
| <b>Алиев Абдор Мураткулович</b>                                                                                                                   |     |
| The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration .....                                                               | 52  |
| <b>Dilorom Mutalova</b>                                                                                                                           |     |
| Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli .....     | 57  |
| <b>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li</b>                                                                    |     |
| Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....                                                                                    | 62  |
| <b>Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li</b>                                                                                                           |     |
| Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida .....                                      | 66  |
| <b>Abdusherzov Abdullo Baxtiyorovich</b>                                                                                                          |     |
| The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing .....   | 73  |
| <b>Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna</b>                                                                                |     |
| Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties .....                                                           | 80  |
| <b>Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna</b>                                                                                  |     |
| Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari .....                                           | 85  |
| <b>Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li</b>                                                                  |     |
| Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....                                  | 89  |
| <b>Fazilat Egamberganova Shuhratovna</b>                                                                                                          |     |
| Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish .....                                                                    | 93  |
| <b>Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li</b>                                                                                                         |     |
| Qurilish sanoati korxonalari boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari .....                                                                          | 98  |
| <b>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</b>                                                                                                             |     |
| Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari .....                                  | 104 |
| <b>Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich</b>                                                                                                     |     |
| Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi .....                                                   | 110 |
| <b>Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi</b>                                                                                                          |     |



|                                                                                                         |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari ..... | 115 |
| <b>Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li</b>                       |     |
| Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida .....  | 118 |
| <b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich</b>                                                               |     |
| Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari .....      | 125 |
| <b>Yaqubova Nodira Olim qizi</b>                                                                        |     |



# NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY JIHATLARI

**Yaqubova Nodira Olim qizi**

TDIU 1-kurs tayanch doktoranti



<https://orcid.org/0009-0000-4850-8848>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim xizmatlarida respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarining o'рни, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim sifati va kadrlar salohiyatini oshirish borasidagi olib borilayotgan islohotlarning mazmuni, nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil qilishdagi kamchiliklar va muammolar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari, raqobat, tashkiliy-huquqiy shakl, litsenziya talablari, samaradorlik

**Abstract:** Annotation. This article presents the role of higher education institutions in our republic in educational services in our country today, the specifics of the organization of non-governmental higher education organizations, the content of reforms in improving the quality of education and human resources, shortcomings and problems in organizing the activities of non-governmental higher education institutions

**Keywords:** Higher education, non-governmental higher education organizations, competition, organizational and legal form, license requirements, efficiency

**Аннотация:** В данной статье системно проанализированы уровень использования экспортного потенциала субъектами малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане, а также факторы, влияющие на его рост. На основе последних статистических данных подробно освещены объем экспорта, ассортимент продукции, потоки финансирования, географические направления и показатели рабочей силы. Согласно результатам исследования, проанализировано текущее состояние экспортной деятельности субъектов малого бизнеса. Выявлены существующие проблемы в отрасли, и подчеркивается необходимость проведения последовательных реформ, внедрения кредитно-грантовых механизмов, информационно-маркетингового подхода и системного мониторинга.

**Ключевые слова:** малый бизнес, экспортный потенциал, диверсификация, международная торговля, барьеры, продукция.

## KIRISH

Bugungi kunda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, xalqimizning kelajak farovonligini ta'minlash, globalashuv jarayonida rivojlangan mamlakatlar qatorida munosib o'rnimizni egallash uchun albatta oldimizdagi eng ustuvor vazifalardan biri bu – ta'lim sohasini rivojlantirishni yangi bir bosqichga ko'tarishdir.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda –, „Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir“. <sup>1</sup> Zero har bir mamlakatning rivojlanishi taraqqiy etishi uchun ta'lim sohasini rivojlantirish eng asosiy kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biridir.

So'nggi yillarda ta'lim sohasidagi o'zgarishlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mamlakatimizda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilish, ularga keng imkoniyatlarni berish orqali ta'limning sifati, raqobatbardoshligini oshirish, barcha sohalarni yetuk, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida ta'lim tizimini yangi bir bosqichga olib chiqish jarayonini ko'rishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi „O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanti-

<sup>1</sup> 2020 -yil 30-osentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi-strategy.uz milliy sayti ma'lumotlari asosida

rish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[1] PF-5847-sonli, 2020-yil 29-oktyabrda "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-sonli, 2023-yil 11-sentyabrda "O'zbekiston-2030" strategiyasi PF-158-sonli, 2017-yil 20-aprelda PQ-2909 "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari natijasida bugungi kunga kelib faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalari soni 2025-yilning birinchi choragida 201 ta bo'lib ulardan 71 tasi nodavlat va 30 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasalari hisoblanadi.

2000-yilda har o'n ming aholiga tog'ri keluvchi talabalar soni 74 nafarni tashkil qilgan bo'lsa 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 357 nafarni tashkil qildi va o'sish sur'ati besh barovarga ortdi.<sup>2</sup>

2025-yilning dastlabki oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 11,1 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,4 foizga oshgan, shuningdek 2024/2025-o'quv yili boshiga 18-23 yoshli aholini ta'lim bilan qamrab olish darajasi 47,7 foizni tashkil qilgan. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ulushi 46,8 foizni tashkil qilgan. Bundan ko'rish mumkinki, mamlakatimizda oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ulushi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nodavlat ta'lim tashkilotlari, xususan, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilish, boshqarish, moliyalashtirish va mazkur ta'lim tashkilotlarini faoliyatini tashkil qilish, boshqarish, moliyalashtirish va mazkur ta'lim tashkilotlarida ko'rsatiladigan ta'lim ta'lim xizmatlari bo'yicha daromad va xarajatlar hisobi, daromadlarni tan olish uslubiyoti va boshqa yo'nalishlar ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, xorijlik olimlardan Philip G.Altbach va Jamil Salmining ilmiy ishlarida oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy-ijtimoiy jihatlari, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining o'rni, rivojlangan mamlakatlardagi ahamiyati va xususiy tijorat universitetlarining o'ziga hos jihatlari ochib berishgan.<sup>[2]</sup> Yaponiyalik olim Futao Huang o'zining ilmiy ishlarida davlat, nodavlat, notijorat oliy ta'lim muassasalarini tashkil qilish, moliyalashtirish mexanizmlari, moliyaviy resurslarini boshqarish to'g'risida o'zining fikrlarini keltirib o'tgan.<sup>[3]</sup>

Nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatiga oid yo'nalishlarda respublikamiz olimlari ham turli ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mamlakatimizda oliy ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi, ta'lim xizmatlari sohasida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish yo'nalishlari K.A.Abdurahmanov, M.X.Saidov, G.A.Axunova, M.Q.Pardayev, A.O.Eraliyev, O.S.Qahharov, A.O.Ochilov, Sh.Sh.Zaxidova, A.O.Ergashev, A.X.Eshbayev, S.A.Babanazarova, A.A.Xamidovlarning ilmiy tadqiqotlarida keng tadqiq qilingan.<sup>[4]</sup>

Nodavlat ta'lim xizmatlarining menejment va marketing masalalari esa YE.V Burdenko, SH.M.Aliyevlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Nodavlat ta'lim tashkilotlarining buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo'yicha ilmiy g'oyalarni O.Nematov, A.N.Abdullayev va M.S.Hojiyevlarning ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Lekin yuqoridagi olimlarning ilmiy izlanishlarida asosan nodavlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirish masalalari, ularda buxgalteriya hisobini tashkil etish kabi umumiy yondoshuvlar kuzatiladi xolos, aynan, xususioliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari to'liq ochib berilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mustaqillikning dastlabki yillarida fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash, ta'lim sohasida davlatning asosiy prinsiplarini belgilash, yoshlarni insonparvarlik ruhida barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun zarur sharoitlar bilan ta'minlash maqsadida mamlakatimizda bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda ta'lim sohasi islohotlarini quyidagi bosqichlarga ajratishimiz mumkin:

1. 1991-1997-yillarda 58 ta oliy o'quv yurti, shu jumladan 16 ta universitet, 42 institut faoliyat ko'rsatgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 28-fevraldagi-PF-356-son farmoni bilan 8ta viloyat pedagogika insitutlari universitetlarga viloyat pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, Qurolli kuchlar akademiyasi, Bank moliya akademiyasi va yana bir qancha oliygohlar tashkil etildi.<sup>3</sup> Yana e'tiborli jihatlaridan biri, 1993-yilda oliy ta'lim muassasalariga kirish sinovlari test shaklida joriy qilinishi bo'ldi.

2. 1997-2016-yillarda mamlakatimizda ta'limning asosiy muammolari, kamchiliklariga, ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlariga, ta'limning sifatiga e'tibor qaratildi. 1997-yil 29-avgustda O'RQ-414-1-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va O'RQ-464-1-sonli "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi ta'lim tizimini

<sup>2</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection>

<sup>3</sup> 1992-yil 28-fevraldagi PF-356 sonli- "Respublikaning yangi oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish to'g'risida"-//O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining axborotnomasi//1992 -y.4-son 206-modda




tubdan isloh qilish va uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etishga qaratilgan.

2002-yilda mamlakatimizda ilk marotaba nodavlat oliy ta'lim tashkiloti sifatida Toshkent shahrida Xalqaro Vestminster universiteti, 2007-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 5-sentyabrdagi PQ-691 qaroriga ko'ra Toshkent shahrida Singapur menejmentni rivojlantirish instituti tashkil qilindi.<sup>4</sup>

3. 2017-yildan-hozirgacha. 2017-yil 20-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari"<sup>5</sup> to'g'risidagi farmoniga asosan 2017-2021-yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturga muvofiq har bir oliy ta'lim muassasasi xorijdagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish, xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, ta'lim dasturlari va o'quv materiallarni keng joriy etish, yuqori malakali chet el o'qituvchilarini va olimlarni keng jalb qilish, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yangilash, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash qaratilgan masalalar amalga oshirildi.

Natijada esa, 2017-2021-yillarda maktab va kollej bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 28 foizga oshdi.

2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>6</sup> farmoniga muvofiq mamlakatimizda oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat nodavlat oliy ta'lim muassasalarini tashkil qilgan holda maktab va kollej bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sog'lom raqobat-muhitini yaratish, respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu maqsadlarga erishishda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari o'rni, salmog'i ham yildan-yilga sezilarli darajada ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm: 2018-2023 yillarda oliy ta'lim sohasining rivojlanish sur'atlari tahlili<sup>7</sup>

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, 2018/2019- o'quv yilida davlat oliy ta'lim muassasalari soni 98 tani tashkil qilib, nodavlat oliy ta'lim muassasalari soni 1 tani tashkil qilgan, nodavlat oliy ta'lim muassasalarining davlat oliy ta'lim muassasalari soniga nisbatan ulushi 1,02 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022/2023-o'quv yilida esa davlat oliy ta'lim muassasalari soni 191 tani tashkil qilib, nodavlat oliy ta'lim muassasalari soni esa 42 taga yetgan, davlat ta'lim muassasalari soniga nisbatan ulushi esa 21.98 foizni tashkil qilib, 5 yil davomida o'sish sur'ati 20.96 foizga oshgan. Shuningdek davlat oliy ta'lim muassasalari soni 2 barovarga, nodavlat ta'lim muassasalari soni esa 42 barovarga ortgan.

4 2007-yil 5-sentyabrdagi PQ-691-sonli "Toshkent shahrida Singapur menejment institut faoliyatini tashkil qilish" to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami // 2007-y., 35-36-son, 354-modda

5 2017-yil 20-apreldagi PF-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari" // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami // 2017-y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda

6 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son

7 O'zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"<sup>8</sup>gi qonunning yangi tahriri qabul qilinishi mamlakatimizda nodavlat ta'lim xizmatlari sohasida normativ-huquqiy asoslarini belgilab berdi.

Ushbu qonunning 11-moddasida – oliy ta'lim muassasalari bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashi, shuningdek 31-moddasida – nodavlat ta'lim tashkilotlari litsenziya talablari va shartlariga muvofiq ta'lim xizmatlarini ko'rsatishi va belgilangan tartibda davlat ta'lim standartlari va hujjatlariga muvofiq bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini berishi belgilab qo'yilgan. Xo'sh, endi savol tug'iladi, mamlakatimizda oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilish uchun qaysi talablarga rioya qilish kerak?

Ta'lim tizimi ijtimoiy soha yo'nalishi bo'lganligi sababli, mazkur soha albatta davlat tomonidan muayyan bir tamoyillar asosida tartibga solib borilishi maqsadga muvofiq. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, nodavlat ta'lim xizmatlari o'rnatilgan tartibda litsenziya olgandan keyin amalga oshiriladigan va litsenziya bitimi doirasida nazorat qilib boriladigan faoliyat turlaridan iboratdir.

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunga ko'ra "O'zbekiston Respublikasining ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari, shuningdek xorijiy davlatlar ta'lim tashkilotlarining filiallari yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etiladi, shuningdek nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilab berilgan. Ta'sischilar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari, shuningdek mahalliy va xorijiy fuqarolar bo'lishi mumkin.

2016-yil 24-avgustda Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimga o'tish chora tadbirlari to'g'risida"gi 275-sonli qarori qabul qilinib, ushbu qaror bilan tasdiqlangan kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan tashkilotlarining tasniflagichiga ko'ra ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyat turi uchun 85.10.0-dan 85.60.0-gacha oraliqdagi kodlar birlashtirilgan" bo'lib, 85.42.0-oliy ta'lim muassasalariga tegishlilikni bildiradi.[5] Bundan xulosa qilish mumkinki, tadbirkorlik subyekti sifatida xodimlarining yillik o'rtacha soni 1 nafardan 10 nafargacha bo'lsa mikrofirmaga, agar 10 nafardan 25 nafargacha bo'lsa kichik korxonaga subyekti sifatida davlat ro'yhatidan o'tkaziladi. Shuningdek nodavlat oliy ta'lim tashkiloti sifatida faoliyat yuritishning litsenziya talablari va shartlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorida belgilab berilgan.<sup>9</sup>

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda belgilangan litsenziyaning umumiy talablari jami 11 banddan iborat bo'lib, ta'lim oluvchi talabalar soni, mutaxassislik yo'nalishlaridan kelib chiqib, umumiy va xususiy talablari belgilangan. Quyidagi 2-rasmda faoliyatni tashkil qilishning umumiy bandlari ko'rsatib berilgan.

|    |                                                                                                                                                      |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    | Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda belgilangan litsenziyaning umumiy talablari:                                         |
| 1. | Muassisning bankdagi hisobvarag'ida mavjud bo'lishi lozim bo'lgan mablag'ning minimal miqdori-150 ming AQSH dollari yoki shu ekvivalentdagi mablag'. |
| 2. | O'quv va o'quv metodik adabiyotlar hamda axborot-resurs bilan ta'minlanganligi                                                                       |
| 3. | Ta'lim oluvchilarning minimal va maksimal soni                                                                                                       |
| 4. | Ta'lim oluvchilar soniga to'g'ri keladigan pedagog kadrlar birliklari soni                                                                           |
| 5. | Oliy ta'lim tashkilotidagi pedagoglarning ilmiy salohiyati darajasi va qo'nimsizligining oldi olinganligi                                            |
| 6. | Kafedradagi ilmiy o'qituvchilarning ilmiy salohiyat darajasi va o'quv fanlariga muvofiqligi va boshqa talablar                                       |

2-rasm: Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishning umumiy talablari<sup>10</sup>

8 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonun//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son//

9 2022-yil 2-fevraldagi Vazirlar Mahkamasining "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risida yagona nizomni tasdiqlash to'g'risida " qarori //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2022-y., 09/22/80/0154-son

10 Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi 80-son qaroriga muvofiq muallif ishlanmasi



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritish bu hozirgi kundagi tadbirkorlik sub'ektlari uchun yangi bir yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yuqorida oliy ta'lim tashkilotini takshil etish va faoliyat yuritish uchun amaldagi normativ-huquqiy xujjatlarda belgilangan minimal talablarni kuzrib chiqdik. Mazkur talablardan tashqari oliy ta'lim tashkilotining ta'lim yo'nalishlari, ta'lim shakli va muddatlaridan kelib chiqib qo'yiladigan xususiy talablar ham mavjudki, albatta faoliyatni yo'lga qo'yishda bu jihatlarni e'tiborga olish lozim bo'ladi. Shuningdek, ta'lim tizimi ijtimoiy sohaga oidligi, shu nuqtai-nazardan davlat tomonidan ham muayan bir doirada tartibga solinib, nazorat qilib borilishini inobatga olgan holda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim, nazarimizda:

- birinchidan, oliy ta'lim tizimining mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyatini chuqur anglab yetish va mulohaza qilish;
- ikkinchidan, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishning huquqiy-normativ asoslarini o'rganish va mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoitlar va imtiyozlardan oqilona foydalanish bo'yicha muayan ko'nikmalarga ega bo'lish;
- uchinchidan, faoliyatni tashkil qilishda boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish;

to'rtinchidan, oliy ta'lim tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatida innovatsion, investitsion muhitni ta'minlash.

Yuqoridagi omillarni inobatga olib oliy ta'lim turi bo'yicha faoliyatni yo'lga qo'ygan xususiy oliy ta'lim tashkilotlari davlat oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro raqobat muhitida respublikamiz iqtisodiyotining turli jabhalari uchun munosib va sifatli kadrlar tayyorlashiga ishonamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 2019-yil 8-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. The road to academic excellence: the making of world-class research universities / edited by Philip G. Altbach and Jamil Salmi 2011.- ISBN 978-0-8213-8805-1 (alk. paper) — ISBN 978-0-8213-8806-8 -394p.
3. Article by Futao-Huang -Higher education financing in Japan: Trends and challenges. International Journal of Educational Development-2016//<https://www.sciencedirect.com>
4. Urazov Sadulla Shodiyevich – "Nodavlat ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand 2025 y.
5. Abdullayev Aybek Nazarbeyeovich "Nodavlat ta'lim tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya avtoreferati, Toshkent 2023

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)